



OLAMNING LISONIY MANZARASINI FRAZEOLOGIK SATHDA NAMOYON BO‘LISHI

S.Sh. Dadajonova

*Andijon davlat chet tillari instituti,
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti
II-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada olamning lisoniy manzarasining frazeologik sathda qanday namoyon bo‘lishi tahlil qilinadi. Olamning lisoniy manzarasi turli tilshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, u insonning dunyo haqidagi tasavvurlari va madaniy tajribalarining lingvistik ifodasi sifatida qaraladi. Maqolada A.A. Zaliznyak va A.V. Kunin kabi tilshunos olimlarning fikrlari asosida frazeologik birliklarning olam manzarasi shakllanishidagi o‘rni va roli ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, frazeologizmlarning semantik xususiyatlari, ularning lisoniy va madaniy kontekstlari va lingvistik kategoriyalar bilan bog‘liqligi o‘rganiladi.

Maqolada frazeologizmlarning funksional tasnifi, ularning nominativ va kommunikativ xususiyatlari ham tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologizmlarning turli tillardagi namoyon bo‘lishi va tarjima jarayonidagi muammolar ham muhokama qilinadi. Bu esa olamning lisoniy manzarasini tahlil qilishda frazeologizmlarning o‘rnini aniq belgilashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, lisoniy manzara, konseptual idrok, semantik tahlil, nominativ va kommunikativ funksiya, frazeologik birliklar, lingvistik transformatsiya, madaniy meros

MANIFESTATION OF THE LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD AT THE PHRASEOLOGICAL LEVEL

ANNOTATION This article analyzes how the linguistic picture of the world is manifested at the phraseological level. The linguistic picture of the world has been studied by various linguists and is considered a linguistic representation of human perceptions and cultural experiences. The article examines the role of phraseological units in shaping the linguistic picture of the world based on the views of linguists such as A.A. Zaliznyak and A.V. Kunin. Additionally, the semantic characteristics of phraseological expressions, their linguistic and cultural contexts, and their relationship with linguistic categories are explored.

The article also analyzes the functional classification of phraseological expressions, their nominative and communicative characteristics, and their manifestations in different languages. Moreover, the challenges of translating phraseological units are discussed. This contributes to

determining the significance of phraseological expressions in analyzing the linguistic picture of the world.

Keywords: phraseology, linguistic picture of the world, conceptual perception, semantic analysis, nominative and communicative function, phraseological units, linguistic transformation, cultural heritage

ПРОЯВЛЕНИЕ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЫ МИРА НА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЕ

АННОТАЦИЯ В данной статье анализируется, как языковая картина мира проявляется на фразеологическом уровне. Языковая картина мира изучалась различными лингвистами и рассматривается как лингвистическое представление человеческих восприятий и культурного опыта. В статье рассматривается роль фразеологических единиц в формировании языковой картины мира на основе взглядов таких лингвистов, как А.А. Зализняк и А.В. Кунин. Кроме того, исследуются семантические характеристики фразеологизмов, их лингвистический и культурный контексты, а также их связь с лингвистическими категориями.

В статье также анализируется функциональная классификация фразеологических выражений, их номинативные и коммуникативные характеристики, а также их проявление в различных языках. Кроме того, рассматриваются проблемы перевода фразеологических единиц. Это способствует определению значимости фразеологических выражений в анализе языковой картины мира.

Ключевые слова: фразеология, языковая картина мира, концептуальное восприятие, семантический анализ, номинативная и коммуникативная функция, фразеологические единицы, лингвистическая трансформация, культурное наследие

Olamning lisoniy manzarasi haqida ko'plab tilshunos olimlarimiz fikr yuritganlar, shu jumladan rus tilshunos olimi A.A.Zaliznyakni ham keltirishimiz mumkin, uning fikriga ko'ra, olamning lisoniy manzarasi ma'lum bir til jamoasining kundalik ongida tarixan shakllangan, tilda o'z aksini topadigan dunyo haqidagi g'oyalar majmui, dunyoni idrok etish va tartibga solishning, voqelikni konseptsiyalashning ma'lum bir usuli ekanligini fanda isbotlab bergan bo'lib, olamning kognitiv manzarasi olamning bevosita tasvirining bir qismi bo'lib, "madaniyat tomonidan o'rnatiladigan ong doirasi va stereotiplari tushunchasi" ekanligini ham ta'kidlab o'tgan. Til o'z tarixi davomida inson tomonidan olamni konseptual idrok etishning barcha usullarini qamrab oladi, bunga fikrlash, bilim olish, bilishni o'rganishning murakkab usuli va nutq va fikrni og'zaki shakllantirishning murakkab mexanizmlaridan tashkil etishini, til harakatchan va moslashuvchan bo'lganligi sababli, uning o'zgarishi insonlarga, o'zgaruvchan sharoitlarga ta'sir qilishini uqtiradi. Olam manzarasi makon (yuqori-quyi, o'ng-chap, sharq-g'arb, uzoq-yaqin), zamon (kun-tun, qish-yoz), miqdor va h.k. o'lchovlar vositasida tasavvur etilishi mumkin. Uning shakllanishiga til, an'analar, tabiat va landshaft, ta'lim, tarbiya va

boshqa ijtimoiy omillar ta’sir ko’rsatadi. Olamning lisoniy manzarasi olamning maxsus manzaralari (kimyo, fizika va h.k.) bilan bir qatorda bo’la olmaydi, u boshqa manzaralardan oldinda bo’lib, ularni shakllantiradi. Chunki inson dunyoni va o’zini umuminsoniy va milliy tajribaga asoslangan til vositasida anglaydi. Bu o’rinda milliy tajriba tilning barcha darajadagi o’ziga xos xususiyatlarni belgilaydi. Tilning o’ziga xosligi tufayli til egasining ongida muayyan olamning lisoniy manzarasi yuzaga keladi va inson u orqali dunyoni ko’radi[2.312].

Olamning lisoniy manzarasini frazeologik sathda namoyon bo’lishi haqida fikr ketganda, mashhur lingvist, frazeologiya sohasining bilimdoni professor A. V. Kuninni eslamasdan bo’lmaydi, chunki mashhur frazeologist tilshunos rus olimi frazeologiya leksikologiyaning bir qismi emas, balki mustaqil lingvistik fan bo’lishi kerak deb hisoblaydi[4.12].

Uning frazeologik birliklar klassifikatsiyasi ularni nutqda bajaradigan funksiyasiga asoslangan. Bular: nominativ, kommunikativ va undov funksiyalaridir. A.V. Kuninning tasnificha frazeologiya, umumiy planda, uchta bo’limdan iborat bo’ladi: idiomalar (xususan frazeologizmlar yoki idiomalar), idiofrazematika (idiofrazematik birliklar yoki ideofrazematizmlar) hamda frazeomatikalar (frazeomatik birliklar yoki idiomatik xususiyatga ega bo’lmagan frazeologizmlar. Frazeologizmlar o’ziga xos tabiatga ega bo’lgan belgilar sifatida tan olinadi. Jumladan, til va nutqda ularning o’ziga xos bo’lgan xususiyatlarini aniqlash, hamda boshqa til birliklari va belgilaridan farqlanuvchi jihatlarini ko’rsatib bera oladigan xususiyatlarga ega bo’lishi talab etiladi. Mazkur xususiyatlarni farqlash badiiy tarjima jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. A.V. Kunin tomonidan ishlab chiqilgan frazeologik birliklar tasnifiga kelsak, frazeologik birliklar tarkibiy belgilariga ko’ra bu kabi (fe’l va adverb birikmasi) birikmalar bir darajali frazeologik birliklar sifatida qaraladi. Bunga ko’ra, ushbu birikmalarning biri mustaqil ma’noli va ikkinchisi mustaqil ma’noga ega bo’lmagan leksema yoki bitta mustaqil ma’noli va ikki yoki uchta mustaqil ma’noga ega bo’lmagan leksemalardan iborat, deb qaraydi[4.12].

Bu kabi frazeologik birikmalarni A.V. Kunin frazeologik birikmalar xususiyatiga ega bo’lgan ibora va shuningdek murakkab so’zning bir bo’lagi, degan fikrni bildiradi. Fe’lli frazeologik birliklarning munosabat xarakteristikasi quyidagi belgilarni aks ettiradi: 1) dinamiklik va stativlik (to talk through one’s hat (inf.) : It is Greek to me); 2) sub’ektning yo’nalishi va sub’ektning ob’ekt tomon yo’nalishi (to go West : to make fun of sb); 3) chegaralanganlik va chegaralanmaganlik (bu holat ko’proq fe’lning aspekt ma’nosidan kelib chiqqan holda belgilanadi) (to come into one’s head : to make light of sb (or sth); 4) harakatning boshlanish, davomiylik va tugallanish fazasi (to burst into tears; to go on reading; to come to an end); 5) harakat yoki holatning vaqti (to be at the beck and call of sb. – to always be ready to do what someone wants); 6) harakat yoki holatning makoni (to make way (for) – to allow (someone or sth) to pass or enter an empty place or position, by moving aside or being moved aside); 7) bir yoki ko’p karralik (to give a points to knock oneself down and out). Umumiy planda fe’lli frazeologik birliklarning harakat yoki holati ikkitadan to’rttagacha bo’lgan belgilarda o’zgarishi

mumkin Frazeologizmning kommunikativ vazifasiga kelsak, ular kommunikativ yoki xabar sifatida xizmat qilish qobiliyati ekanligini anglatadi.

Muloqot o'zaro munosabatlarni nazarda tutadi bayonotlar almashinuvi va xabarni nazarda tutadi bilan aloqasiz ma'lumotlarni uzatish o'quvchi yoki tinglovchi. Frazeologik birliklarning nominativ vazifasi ularning real dunyo ob'ektlariga, shu jumladan vaziyatlarga munosabati; hamda nutqda bu predmetlarni almashtirish frazeologik ma'nolari bo'yicha faoliyat. To'ldirish tilning leksik tizimidagi lakunalarning mavjudligi xarakterlidir frazeologizmning nominativ vazifasi birliklar. Bu funksiya mutlaq ko'pchilikka xosdir frazeologik birliklar, chunki ular leksikaga ega emas sinonimlar. Nominativ funktsiyaning pastki turlari neytral-nominal va nominal funktsiyalar. Tilshunos olim yana frazeologik birliklar, frazeomatik birliklar va aralash holatlarni farqlab beradi. Frazeologik birliklar toliq yoki qisman manosi o'zgartiradi, frazeomatik birliklar esa uning adabiy manosida qollaniladi. Ular ikkalasi frazeologik turgunligiga qarab xarakterlanadi qaysiki, erkin frazalar va qoshma sozlardan farq qiladi. Olamning lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmlar alohida rol o'ynaydi.

Ular xalq, millat hayotining ko'zgusidir. O'zbek tilshunosligida ham frazeologizmlar tasnifi haqida bizning o'zbek olimlarimizdan biri professor M.Umarxodjaevning ilmiy ishini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Olimning 1977 yilda e'lon qilingan “Очерки по современной фразеологии” nomli monografiyasida frazeologik birliklarning so'z va so'z birikmalaridan o'ziga xos o'xshash va farq qiluvchi xususiyatlari haqida qoidalarni tahlil qilish orqali frazeologik nazariyalarni umumlashtirgan. U frazeologik birliklarni asosiy va belgilovchi to'rt turga ajratadi: “1. So'z birikmasi va so'zlar o'rtasidagi struktur bog'liqlikning shakllanishi; (FBlarning chegara belgilari); 2. Ularning qo'llanishi, morfologik va sintaktik, semantik ma'nolari va leksik tarkibi jihatdan barqarorligi; 3. Ularni komponentlarini to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqish (o'zgaruvchan so'z birikmalaridan frazeologik birliklarni chegaralash); 4. Semantik qayta ko'rib chiqish”[5.17]

Professor M.I. Umarxodjaev: “Demak, frazeologik birliklar kamida ikkita to'liq yoki qisman semantik o'zgartirilgan tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan so'z birikmalari bo'lib, alohida so'zlar, har qancha qayta ishlanmasin, frazeologik birliklar bo'la olmaydi”[5.28] - o'zining nazariy qarashlarini berib o'tgan olim. Tadqiqotchilar tomonidan turli tillarda FBlarning bir qator tasniflar ishlab chiqilgan: strukturaviy, grammatik, semantik, funktsional va boshqalar. Jumladan, FBlarning tuzilishi va semantikasidan kelib O'zbekistonda zamonaviy lug'atshunoslik va tarjima-shunoslikning dolzarb masalalari chiqqan holda, A.V.Kunin ularni takroriy, so'zma-so'z tarjimaning mumkin emasligi, idiomatiklik, bo'linuvchanlik, tasviriylilik va barqarorlik kabi tasnifini bergan[3.90].

Biroq M.Umarxodjaev bu fikr bir qator frazeologizmlarga xos emasligini bir necha misollar orqali ifodalab bergan: “Masalan, takrorlanuvchanlik mezonini frazeologik xarakterga ega bo'lmagan so'z va iboralar uchun ham xos bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilishning mumkin emasligi mezonini milliy rangdagi ayrim so'zlarga (reallikka) ham tegishli. Boshqa tomondan, turli tillarda parallel frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ularni bir tildan ikkinchi tilga so'zma-

so‘z tarjima qilish mumkin, masalan, nemis tilida: wie Hund und Katze leben; rus tilida: Жить как кошка с собакой; o‘zbek tilida: it-mushuk bo‘lib yashamoq kabi. So‘z va frazeologik birlikni chog‘ishtirish orqali tegishli farqlovchi xususiyatlar aniqlandi”[1.4].

Frazeologiya muammolari masalalarini o‘rgangan tilshunoslar olimlarning tasniflari bir-biridan ba’zi fikrlardagi farqlarga qaramay, asosan bir xil qarashlarga ega, bo‘lib, frazeologik birliklarning so‘z va erkin birikmalarga nisbatan farqlovchi belgi va xususiyatlari mavjudligi haqida M.Umarxodjaev: “Frazeologik quyi tizimi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. U leksik quyi tizimdan birliklarining kelib chiqishi bilan ham, boshqa belgilari bilan ham ajralib turadi. Frazeologik birliklar o‘z birliklarining strukturasi, ba’zan vazifasiga ko‘ra gap darajasiga yaqin turadi”[5.2] deb ta’kidlagan o‘z asarida.

Til tizimidagi frazeologik quyi tizim funktsional yo‘nalish nuqtai nazaridan so‘zlar bilan bir qatorda frazeologik birliklar ham nominatsiya va kommunikatsiya vositasi bo‘lish maqsadini amalga oshirishi bilan tavsiflanadi. Bu haqda M.Umarxodjaev: “Frazeologik quyi tizim haqiqatda mavjud, deb faraz qilsak va lingvistik jihatdan ajralib tursa, u holda biz frazeologiya haqida til tizimidagi shunday quyi tizim sifatida gapirish huquqiga ega bo‘lamiz, uning birliklari leksemalar va gaplar orasida joylashgan va tilning boshqa quyi tizimlari (darajalari)ning barcha izomorf xususiyatlariga ega. Frazeologik quyi tizimning sathlararo mavqei, uning birliklarining quyi daraja birliklari - so‘zlar - va yuqori daraja birliklari - gaplar bilan o‘xshashligi til tizimidagi ushbu birliklar majmuasining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi”[5.2] deb ta’kidlaydi.

M.Umarxodjaev frazeologik quyi tizimning markaziy va periferik elementlari o‘rtasidagi munosabatni lingvistik elementlarning integratsiyalashuv darajasi, ularning tizimdagi funktsional vazifasi hamda qo‘llanish chastotasi mezonlarini ishlab chiqqan. Olim frazeologik tizimning markaziy va periferik elementlarini farqlashning muhim mezoni – bu frazeologik birlik komponentlarining bir butun holda yaxlitlanishi deb hisoblaydi. Olim frazeologik tizimning markaziy va periferik elementlarini farqlashning muhim mezoni - bu frazeologik birlik komponentlarining bir butun holda yaxlitlanishi deb hisoblaydi.

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz professor M.I.Umarhodjayevning fikrlariga qo‘shilgan holda, frazeologik quyi tizimning sathlararo mavqei, uning birliklarining quyi daraja birliklari - so‘zlar - va yuqori daraja birliklari - gaplar bilan o‘xshashligi til tizimidagi ushbu birliklar majmuasining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi deb hulosa qilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Umarhodshajev. Bemerkungen zur phraseologischen Forschung in der UdSSR-Sprachpflege, Leipzig, 1971. Heft 4.
2. Turdiyeva I. K. Olamning lisoniy manzarasi va frazeologik tasviri. Eurasian Jurnal of Academic research. Innovative Academy Research Support Center. Volume 2 Issue 13, December 2022. -P. 312

3. А.В.Кунин. “Фразеологический уровень языка. // Уровни языка и их взаимодействие2” Тезисы научной конференции. Москва, 1967. – С. 90.

Зализняк, А. А. Языковая картина мира // Энциклопедия «Кругосвет».

4. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз.– М.: Высш. шк., Дубна: Изд. Центр "Феникс", 1996. – С.12.

5. Умарходжаев М. Очерки по современной фразеологии. Изд: Фан. Тошкент, 1977. – С. 27.